

O'zbekiston Respublikasida iste'mol narxlari indeksi (INI)

2026-yil fevral oyi

Ma'lumotlar jadvaliga havolalar:

MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan

- I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)
- VI. Uslubiy ma'lumotlar
- VII. Foydali havolalar


I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI

2026-yil fevral oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,6 %**, 2025-yilning dekabriga nisbatan **101,3 %**, yillik nisbatda **107,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025-yil fevral oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,5 %**, 2024-yilning dekabriga nisbatan **101,3 %**, yillik nisbatda **110,1 %** ni tashkil etgan.

Meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, oylik INI ko'rsatkichi **100,5 %** (2025 yil fevral oyida **100,3 %**), 2026-yilning yanvar-fevral oylarida **101,1 %**, yillik nisbatda **108,3 %** (2025-yil fevral oyida **112,0 %**)ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati %da



Quyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha 2026-yilning fevral oyida asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishlari keltirilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi

Oy davomida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan qo'y go'shti – **2,6 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+27,4 %**)ga, suyaksiz mol go'shti – **1,6 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+24,0 %**)ga, suyakli mol go'shti – **1,6 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+22,4 %**)ga, parranda go'shti – **1,4–1,8 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+7,0 %** dan **+7,5 %** gacha)ga, tuxum – **0,7 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+14,8 %**)ga, xom sut – o'rtacha **0,4 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+5,8 %**)ga, un – o'rtacha **0,5 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+1,3 %**)ga va o'simlik yog'i narxlar o'rtacha **0,4 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+12,8 %**)ga o'sishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2026-yil fevral oyida narxlarning o'zgarishi ham import, ham mahalliy mol go'shtiga nisbatan qayd etildi. Respublika bo'yicha mol go'shtining 1 kilogrammi o'rtacha narxi 500-2 000 so'm oralig'ida oshdi.

Oy davomida asosan guruch va guruch oqshog'i – **0,9 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-14,1 %**)ga, ko'k choy – **0,3 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+2,5 %**)ga, tayyor nonushta shaklidagi donli mahsulotlar ("quruq nonushtalar") – **0,5 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+3,0 %**)ga va marmelad – **0,2 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+2,9 %**)ga narxlarining pasayishi kuzatildi.

Asosiy meva-sabzavot mahsulotlaridan pomidor – **12,1 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-12,5 %**)ga, qovoq – **11,7 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-57,1 %**)ga, kartoshka – **5,0 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+2,0 %**)ga, bulg'or qalampiri – **4,2 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-15,1 %**)ga, olma – **4,1 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+12,4 %**)ga, limon – **3,6 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+90,0 %**)ga, banan – **3,0 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+2,4 %**)ga, sabzi – **1,8 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+8,8 %**)ga, karam – **1,8 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+10,6 %**)ga narxlar sezilarli oshdi. Bodring – **13,8 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-13,0 %**)ga, mandarin – **5,6 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+15,8 %**)ga, apelsin – **5,4 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+6,8 %**)ga, lavlagi – **1,7 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+8,3 %**)ga va piyoz narxlarining **0,9 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-3,0 %**)ga sezilarli pasayishi kuzatildi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi

Joriy yilning fevral oyida bir qator hududlarda asosiy kommunal xizmatlar tariflarining barqarorligi fonida maishiy chiqindilarni olib ketish uchun to'lovlar oshirildi. Respublika bo'yicha ushbu xizmat turi o'rtacha **4,7 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+32,6 %**)ga qimmatlashdi. Oy davomida uy-joy ijarasi to'lovi **0,5 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+2,3 %**)ga, turar joy binolariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha materiallar va xizmatlar o'rtacha **0,4 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+6,2 %**)ga oshdi.

Sog'liqni saqlash xizmatlari bo'limi

Sog'liqni saqlash sohasida oy davomida ambulator davolash va reabilitatsiya xizmatlari **1,1 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+6,5 %**)ga, diagnostika vizualizatsiya xizmatlari **0,8 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+9,3 %**)ga, statsionar davolash xizmatlari **0,6 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+7,1 %**)ga, dori vositalari va tibbiy mahsulotlar **0,4 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+3,9 %**)ga qimmatlashdi.

Transport bo'limi

Oy davomida benzin uchun o'rtacha iste'mol darajasi **0,5 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+10,1 %**)ga pasaydi. Bunda, benzinning AI-92 markasi – **0,5 %**ga arzonlashdi, AI-95 markasi – **0,7 %**ga, AI-98 va AI-100 markalari esa – **0,3 %**ga oshdi.

Propanning narxi oy davomida **1,9 %** (2025-yil fevraliga nisbatan **+9,7 %**)ga oshib, 1 litr uchun yuqori narx chegarasi **8 500 so'mni** tashkil etdi. 2026-yil fevral oyida metan narxi sezilarli o'zgarmadi (**+0,1 %**), biroq 2025-yil fevraliga nisbatan **30,3 %**ga yuqori darajada saqlanib qoldi. Joriy yilning fevral oyida shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari **0,8 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+6,9 %**)ga qimmatlashdi.

Fevral oyida kuzatuvdagi yo'nalishlar bo'yicha uzoq masofaga qatnaydigan poyezdlarda yo'lovchi tashish xizmatlarining o'rtacha narxi **14,0 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **+14,9 %**)ga, aviaqatnovlar esa o'rtacha narxi **4,4 %** (2025-yil fevral oyiga nisbatan **-0,2 %**)ga oshishi kuzatildi.

Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar bo'limi

2026-yil fevral oyida bo'limdagi tovarlar va xizmatlar uchun qisqa muddatli INI yuqori chegarasi **101,5 %** (qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari)ni, quyi chegarasi **99,8 %** (boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy foydalanish uchun boshqa priborlar, buyumlar va tovarlar)ni tashkil etdi. Yillik INI bo'yicha ko'rsatkichlar chegarasi **132,1 %** (qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari) – **100,3 %** (tish cho'tka)ni tashkil etdi.

Boshqa bo'limlarda tovar va xizmat narxlari o'zgarishi ta'siri yuqori bo'lmadi yoki yig'ma ko'rsatkichga sezilarli darajada ta'sir qilmadi.

2026-yilning fevral oyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da

	Bo'lim nomi	2026-yilning yanvariga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning fevraliga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,0	101,8	105,8
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,3	100,6	105,7
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,2	100,3	102,4
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,5	100,7	117,5
V.	Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,4	100,7	102,4
VI.	Sog'liqni saqlash	100,6	101,2	105,2
VII.	Transport	100,5	100,8	110,9
VIII.	Axborot va aloqa	100,2	101,3	110,0
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,2	100,7	105,2
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,1	100,2	101,6
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,6	101,3	108,4
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,3	141,2	140,3
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,6	101,7	108,0

II. Hududlar kesimida yig'ma INI

Hududlar kesimida qisqa muddatli va yillik INI bo'yicha o'rtacha respublika ko'rsatkichidan katta farq qayd etilmadi.

2026-yilning fevral oyida hududlar bo'yicha INI, % da

	Hududlar	2026-yilning yanvariga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning fevraliga nisbatan
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,6	101,3	107,6
	viloyatlar:			
	Andijon	100,6	101,2	107,2
	Buxoro	100,5	101,2	107,5
	Jizzax	100,5	101,2	106,7
	Qashqadaryo	100,9	101,6	107,4
	Navoiy	100,9	101,6	107,4
	Namangan	100,6	101,3	107,5
	Samarqand	100,6	101,4	107,3
	Surxondaryo	100,5	101,2	107,5
	Sirdaryo	100,5	101,2	107,3
	Toshkent	100,6	101,3	106,9
	Farg'ona	100,5	101,2	107,8
	Xorazm	100,6	101,2	107,5
	Toshkent sh.	100,6	101,3	107,1

III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI

2026 yilning fevral oyida tovarlarga qisqa muddatli INI **100,6 %** (2025-yil fevral oyida **100,5 %**)ni, yil boshidan **101,3 %** (2025-yilning yanvar-fevralida **101,1 %**)ni va yillik nisbatda **105,6 %** (2025-yil fevralida **105,0 %**)ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI **100,9 %** (2025-yil fevral oyida **100,6 %**)ni, 2026-yil boshidan **101,7 %** (2025-yilning yanvar-fevralida **101,4 %**)ni va yillik nisbatda **105,9 %** (2025-yilning fevralida **102,9 %**)ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha INI **100,2 %** (2025-yil fevral oyida **100,3 %**)ni, yil boshidan **100,7 %** (2025-yilning yanvar-fevralida **100,6 %**)ni va yillik nisbatda **105,2 %** (2025-yilning fevralida **107,7 %**)ni tashkil etdi.


Xizmatlar bo'yicha oylik ko'rsatkich **100,6 %** (2025-yil fevral oyida **100,8 %**)ni, yil boshidan **101,4 %** (2025-yilning yanvar-fevralida **101,9 %**)ni va yillik nisbatda **113,3 %** (2025-yilning fevralida **127,1 %**)ni tashkil etdi.

Asosiy guruhlar bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga
nisbatan



o'tgan yilning mos
oyiga nisbatan



IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2026-yilning fevral oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,37 f.d.**ga (umumiy o'sishning **60,7 %** i) oshirdi. "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Transport" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,11 f.d.**ga oshirdi. Qolgan bo'limlarida narxlarning oshishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,13 f.d.**ga oshishiga xizmat qildi.

MIIT – 2018 bo'limlarining 2026-yil fevral oyida yig'ma INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan

I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,37
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,00
III. Kiyimlar va poyabzallar	0,02
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,05
V. Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,02
VI. Sog'liqni saqlash	0,03
VII. Transport	0,06
VIII. Axborot va aloqa	0,01
IX. Dam olish, sport va madaniyat	0,01
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,00
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,01
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,00
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,03

Jami ta'siri

+0,61 f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,69
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,00
III. Kiyimlar va poyabzallar	0,03
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,08
V. Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,05
VI. Sog'liqni saqlash	0,06
VII. Transport	0,08
VIII. Axborot va aloqa	0,04
IX. Dam olish, sport va madaniyat	0,02
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,01
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,02
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,12
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,09

Jami ta'siri

+1,29 f.d.

2026-yil yanvar–fevral oyida yillik yig'ma INI o'sishiga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" bo'limidagi narxlar o'zgarishi eng katta hissa qo'shdi. "Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar" bo'limida narxlarning o'sishi hisobiga 2026-yilning yanvar–fevral oylarida yig'ma INI **0,12 f.d.** (umumiy o'sishning **9,3 %**)ga oshdi va yana unga "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Transport" va "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" bo'limlarida narxlarning o'zgarishi **0,25 f.d.** hissa qo'shdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri ancha kam bo'ldi.

V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)

2026-yil yanvaroyidan boshlab Milliy statistika qo'mitasi geometrik Yang formulasi asosida qo'shimcha INIn shakllantirdi. **Mazkur indeks faqat tahliliy maqsadlarda qo'llaniladi va yuqorida e'lon qilingan asosiy INIning o'rnini bosmaydi yoki unga muqobil hisoblanmaydi** (batafsil ma'lumot "Uslubiy tushuntirishlar" bo'limining VI bandida keltirilgan).

2026-yil fevral oyida geometrik Yang formulasi bo'yicha oylik INI **100,6** %ni, 2025-yil dekabr nisbatan **101,2** %ni tashkil etdi.

2026-yil fevral oyi uchun geometrik Yang formulasi bo'yicha INI, %da (TAHLILIY MAQSADLAR UCHUN)

	Bo'lim nomi	2026-yilning yanvariga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,9	101,7
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,3	100,6
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,1	100,3
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,4	100,6
V.	Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,3	100,7
VI.	Sog'liqni saqlash	100,6	101,2
VII.	Transport	100,5	100,8
VIII.	Axborot va aloqa	100,2	101,3
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,2	100,7
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,1	100,2
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,6	101,3
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,4	121,8
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,6	101,7

VI. Uslubiy ma'lumotlar

2026-yil yanvaridan boshlab Iste'mol narxlari indeksining oylik hisob-kitobi 517 ta tovar va xizmat turiga (2025-yilda – 510 ta) asoslanadi, shundan 419 tasi tovar va 98 tasi xizmatlardir.

INI hisob-kitoblari salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarining tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari) va iste'mol narxlari o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik holatini aks ettirishini va iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari va tanlanma asosda shaharlar va tumanlar markazlaridan to'planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuv turg'un savdo va xizmat ko'rsatish sohasi shahobchalari va ko'chma savdo (palatka, rastalar v.b.) obyektlarida tanlanma asosida o'tkaziladi.

Hisob-kitoblarda quyidagi manbalardan olingan narx o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar qo'llaniladi:

(1) CAPI¹ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (chakana savdo do'konlariga tashrif

buyurib narxlarni ro'yxatdan o'tkazish);

(2) ma'muriy tranzaksiya ma'lumotlar (soliq organlari ma'lumotlar bazasidan onlayn-kassa mashinalari chek ma'lumotlari);

(3) eStat² tizimi orqali xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan va chakana sotuvchilardan olingan ma'lumotlar (API³ /Excel formatida);

(4) web scraping⁴ texnologiyasiga asoslangan va turli xil onlayn manbalar (vab-sayt ma'lumotlari) dan olingan narxlar;

(5) CATI⁵ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (telefon orqali so'rovnoma).

Narxlarni yig'ish har oyning 1-dan 25-sanasigacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Narxlarni to'plashning har bir usuli va manbasi uchun alohida grafik belgilangan bo'lib, u xalqaro standartlar tavsiyalari asosida tayyorlangan va 2026-yil yanvar oyidan joriy etilgan yangilangan metodikada mustahkamlab qo'yilgan.

XVJ ekspertlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga arifmetik Yang formulasini joriy etish qisqa muddatli istiqbolda tavsiya etilgan.

Tahliliy maqsadlar va respublikadagi inflyatsion jarayonlarni kompleks baholash uchun 2026-yil yanvardan boshlab **geometrik Yang formulasining muqobil variantidan foydalanib, qo'shimcha narx indeksini shakllantirish boshlandi**. Ushbu hisob-kitoblar natijalari doimo "Tahliliy maqsadlar uchun" degan belgi bilan e'lon qilib boriladi.

Modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasi asosida shakllangan INI iste'mol sektoridagi inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Geometrik Yang formulasi bo'yicha hisoblangan INI esa tahlil maqsadlari uchun qo'shimcha ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi mutaxassislari tomonidan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga geometrik Yang formulasini joriy etish tavsiya etilgan.

2026-yil yanvar oyidan kuchga kirgan metodologiyadagi o'zgarishlar **"O'zbekiston Respublikasida narxlar indekslarini shakllantirish metodologiyasidagi asosiy o'zgarishlar to'g'risida"gi press-reliz**da batafsil yoritilgan.

VII. Foydali havolalar

[Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari \(tariflari\) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

Chop etish uchun mas'ul:
Narxlar statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent, Mustaqillik
shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel: +99871 203-80-00 (1100, 1101)



¹ CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) – narxlar statistikasida bu ma'lumot to'plash usuli bo'lib, unda registratorlar savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga bevosita borib, narxlarni qog'oz anketa o'rniga planshet orqali qayd etadilar.

² O'zbekistonda statistik hisobotlarni elektron shaklda yig'ishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

³ API (Application Programming Interface) – bu turli dasturlar o'zaro muloqot qilishi va ma'lumot almashishiga imkon beruvchi dasturiy interfeys, qoidalar, buyruqlar va vositalar majmuasidir.

⁴ Veb-resurs sahifalaridan ma'lumotlarni avtomatik ravishda qirib olish texnologiyasi.



⁵ CATI (Computer Assisted Telephone Interviewing) – bu kompyuter yordamida telefon orqali intervyu o'tkazishga asoslangan ma'lumot to'plash usuli.